

O'ZBEK TILIDAGI "KO'NGIL" KOMPOONENTLI FRAZELOGIZMLARDA ANTONIMIYA

Rixsiyeva Arofat G'ofurovna

Amaliy fanlar universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21936971>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilidagi "ko'ngil" komponentli frazeologizmlarda antonimik munosabatlarning shakllanish asoslari va ko'rinishlari tadqiq etiladi. Tahlilda qarama-qarshi ma'noni yuzaga keltiruvchi komponentlar, yaxlit frazeologik ma'no, obrazli asos, baholash yo'nalishi hamda kontekstual qo'llanish mezonlariga tayaniladi. Antonimik munosabatlarning alohida juftliklar, ma'nodosh qatorlar va qarama-qarshi semantik guruhlar doirasida namoyon bo'lish xususiyatlari aniqlashtiriladi.

Kalit so'zlar: *"ko'ngil" komponentli frazeologizmlar, frazeologik antonimiya, semantik qutblanish, frazeologik ma'no, baholash semantikasi.*

Abstract. The article examines the principles and forms of antonymic relations in Uzbek phraseological units containing the component *ko'ngil*. The analysis considers components that convey opposing meanings, the integral phraseological meaning, the figurative basis, evaluative orientation, and contextual usage. Particular attention is given to the realization of antonymic relations within individual pairs, synonymic series, and semantically opposed groups.

Keywords: *phraseological units containing the component ko'ngil, phraseological antonymy, semantic polarization, phraseological meaning, evaluative semantics.*

Аннотация. В статье исследуются основания формирования и формы проявления антонимических отношений во фразеологических единицах узбекского языка с компонентом *ko'ngil*. При анализе учитываются компоненты, формирующие противоположное значение, целостное фразеологическое значение, образная основа, оценочная направленность и контекстуальное употребление. Уточняются особенности реализации антонимических отношений в пределах отдельных пар, синонимических рядов и противопоставленных семантических групп.

Ключевые слова: *фразеологические единицы с компонентом ko'ngil, фразеологическая антонимия, семантическая поляризация, фразеологическое значение, оценочная семантика.*

Frazeologik antonimiya umumiy semantik asosga mansub frazemalarning qarama-qarshi ma'no yo'nalishlarini ifodalashiga tayanadi. Mazkur munosabat frazemalarning tarkibi, yaxlit ma'nosi, baholash xususiyati va nutqiy qo'llanishi orqali aniqlanadi. R.Ayupova antonimik aloqalarning frazeologik lug'atlarda izchil aks ettirilishi frazemalar o'rtasidagi semantik munosabatlarni aniq belgilashga xizmat qilishini qayd etadi [2, 156]. E.Mardieva frazeologik antonimlarni ajratishda frazemaning yaxlit ma'nosini asosiy mezon sifatida ko'rsatadi [3, 104–105].

Ayrim frazemalarda qarama-qarshilik tarkibdagi zid ma'noli komponentlar orqali ifodalanadi: *ko'ngli bor – ko'ngli yo'q, ko'ngli keng – ko'ngli tor, ko'ngli yumshoq – ko'ngli qattiq, ko'ngli butun – ko'ngli yarimta*. Boshqa frazemalarda esa antonimik munosabat yaxlit frazeologik ma'nolarning qutblanishi asosida yuzaga keladi: *ko'ngli cho'kdi – ko'ngli ko'tarildi, ko'ngli xira – ko'ngli yorishdi*.

“Ko’ngil” komponentli frazemalarda antonimik munosabat insonning ruhiy holati, axloqiy xususiyatlari va shaxslararo munosabatlarini qarama-qarshi yo’nalishda ifodalashga xizmat qiladi. Bu munosabat ikki frazema o’rtasida ham, ma’nodosh frazemalardan tuzilgan qarama-qarshi qatorlar doirasida ham namoyon bo’ladi. I.Poddyachaya frazeologik antonimlarni aniqlashda umumiy semantik sinf, ma’no yo’nalishi va nutqiy vazifaning o’zaro muvofiqligini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi [7, 246–257]. *Ko’ngli bor – ko’ngli yo’q* juftligini ichki moyillikning mavjudligi yoki mavjud emasligi birlashtiradi. *Ko’ngli bor* muayyan shaxs, faoliyat yoki maqsadga nisbatan xohish va rag’batni bildiradi. *Ko’ngli yo’q* frazemasida mazkur moyillikning mavjud emasligi ifodalanadi:

Qizimning eriga ko’ngli yo’q, — deb o’yladi Manzura.

(T. Malik. *Shaytanat*. 200-bet)

Bor – yo’q komponentlarining lug’aviy zidligi frazemalarning yaxlit ma’nosida ham saqlanadi. Juftlikning antonimik xususiyati bir xil obyektga nisbatan yuzaga keladigan ijobiy moyillik va undan xoli holatning qarama-qarshiligiga asoslanadi.

Ko’ngli keng – ko’ngli tor frazemalarida shaxsning boshqa kishilarga munosabati baholanadi. *Ko’ngli keng* kechirimlilik, saxovat, murosaga tayyorlik va kishilarni tushuna bilishni anglatadi:

Ko’ngillari keng bularning. Kishilarni... shahar tor qilib qo’yadimi deyman-da, a? (Sh. Xolmirzayev. *So’nggi bekat*. 58-bet)

Kontekstda makonning torligi inson ko’nglining kengligi bilan qarshilantirilgan va frazemaning baholash mazmuni kuchaytirilgan. *Ko’ngli tor* hasad, maydachilik, kechira olmaslik va boshqalarning holatini qabul qilishga tayyor emaslikni ifodalaydi. Kenglik va torlikka oid makon tasavvurlari shaxsning axloqiy hamda ijtimoiy xususiyatlarini baholashga ko’chirilgan.

Ko’ngli yumshoq – ko’ngli qattiq juftligida jismning fizik belgisi ruhiy-axloqiy xususiyatni ifodalashga xizmat qiladi. *Ko’ngli yumshoq* rahmdillik, ta’sirchanlik va boshqalarning dardiga hamdardlikni anglatadi:

Nu’monjon yumshoq ko’ngil, qizdekkina yigit ekan.

(S. Ahmad. *Cho’l burguti*. 12-bet)

Ko’ngli qattiq frazemasida rahm-shafqatning sustligi, hissiy ta’sirga berilmaslik va boshqalarning holatiga befarqlik ifodalanadi. Mazkur juftlik rahmdillik darajasi asosida shakllangan. Yumshoqlik ijobiy, qattiqlik esa salbiy baho bilan bog’langan.

Ko’ngli butun – ko’ngli yarimta juftligida ruhiy qoniqish va o’ksiklik qarama-qarshi qo’yiladi. *Ko’ngli butun* xotirjamlik, qanoat va ruhiy to’kislikni bildiradi. *Ko’ngli yarimta* frazemasida yetishmovchilik, o’ksinish va ichki qoniqmaslik anglashiladi. *Butun – yarimta* komponentlari predmetning tarkibiy holatiga oid ma’nodan insonning ruhiy holatini baholashga ko’chgan.

Axloqiy bahoni ifodalovchi frazemalarda antonimik munosabat ma’nodosh qatorlar o’rtasida ham shakllanadi. *Ko’ngli toza, ko’ngli pok, oq ko’ngil, ko’nglida kiri yo’q* frazemalari samimiylik, beg’arazlik, yaxshi niyat va kek saqlamaslikni ifodalaydi:

Sal qo’polroq gapirgani bilan ko’ngli toza.

(T. Malik. *Shaytanat*. 192-bet)

Ularga *ko’ngli qora, ko’ngli kir, ko’nglida kiri bor* frazemalari qarshi turadi. Ushbu qatorda g’araz, hasad, yomon niyat va nosamimiylik ma’nolari ifodalanadi. Qarama-qarshilik poklik va

kirlik, oqlik va qoralikka oid tasavvurlarning axloqiy baholash sohasiga ko'chirilishi asosida yuzaga kelgan. Mazkur munosabat alohida frazemalar juftligidan keng bo'lib, ijobiy va salbiy ma'nodosh qatorlarni qamrab oladi.

Ruhiy holatni ifodalovchi frazemalarda vertikal yo'nalish barqaror obrazli asos vazifasini bajaradi. *Ko'ngli ko'tarildi* ruhlanish, dalda topish va kayfiyatning yaxshilanishini bildiradi. *Ko'ngli cho'kdi* tushkunlik, umidsizlik va ruhiy faollikning pasayishini anglatadi. Ko'tarilish ijobiy, cho'kish salbiy ruhiy holat bilan bog'langan. *Ko'ngli o'sdi, ko'ngli tog'day ko'tarildi* frazemalari ruhiy ko'tarinkilikning turli darajalarini, *ko'ngli cho'kdi, ko'ngli o'ksidi, ko'ngli vayron bo'ldi* frazemalari esa tushkunlik va ruhiy iztirobning turli ko'rinishlarini ifodalaydi. Natijada antonimik munosabat alohida juftlik bilan birga qarama-qarshi ma'nodosh qatorlar o'rtasida ham shakllanadi.

Yorug'lik va xiralikka asoslangan frazemalarda ruhiy holatning boshqa bir obrazli modeli kuzatiladi. *Ko'ngli xira, ko'ngli g'ash, ko'ngli xiralashdi* frazemalari tashvish, noxush kayfiyat va ichki bezovtalikni bildiradi:

Har holda ko'ngil xira tortgan mahalda chor atrof ham tundlashib qoladi. (T. Malik. *Shaytanat*. 74-bet)

Ko'ngli yorishdi, ko'ngli ravshan tortdi, ko'ngli ochildi frazemalarida g'ashlikning tarqalishi, umidning tiklanishi va ruhiy yengillik ifodalanadi:

Badanini omburdek burab azoblayotgan xumor qiynog'i so'ngan edi. "Doridan olibman", deb ko'ngli ravshanlashdi. (T. Malik. *Shaytanat*. 2-bet)

Xiralik ruhiy notinchlikni, ravshanlik esa osoyishtalik va umidni ifodalaydi. Ushbu frazemalar grammatik tuzilishi va harakatning kechish xususiyatiga ko'ra to'liq muvofiqlashmasa ham, ruhiy holatning qarama-qarshi yo'nalishlarini anglatuvchi semantik qatorlarni hosil qiladi.

Ko'ngli joyiga tushdi frazemasi xavotirning bartaraf bo'lishi va ruhiy osoyishtalikning tiklanishini anglatadi:

Gulchehra shu fikr bilan qanoatlanib, ko'ngli joyiga tushdi-da, uyiga kirdi. (O'. Umarbekov. *Odam bo'lish qiyin*. 84-bet)

Ko'ngliga vahima tushdi, ko'ngliga g'ashlik tushdi, ko'ngliga qil sig'maydi frazemalarida bezovtalik, qo'rquv va ruhiy tanglik ifodalanadi. Mazkur frazemalar qat'iy antonimik juftlikni hosil qilmaydi. Ularning munosabati ruhiy osoyishtalik va bezovtalikni ifodalovchi qarama-qarshi semantik guruhlar doirasida belgilanadi.

Shaxslararo munosabatga doir frazemalarda hissiy yaqinlashuv va uzoqlashuv yo'nalishlari qarama-qarshi qo'yiladi. *Ko'ngil bermog, ko'ngil bog'lamoq, ko'ngil qo'ymoq* mehr, muhabbat va ichki yaqinlikning yuzaga kelishini anglatadi. *Ko'ngli sovimoq, ko'ngli qolmoq, ko'nglini uzmoq, ko'ngil uzoqlashmoq* frazemalari munosabatning susayishi yoki tugashini ifodalaydi:

Ishdan ham ko'nglim sovib borayapti. (Sh. Xolmirzayev. *So'nggi bekat*. 168-bet)

Ushbu frazemalar grammatik jihatdan muvofiq antonimik juftliklar hosil qilmaydi. Ular shaxs yoki faoliyatga nisbatan moyillikning yuzaga kelishi, rivojlanishi, susayishi va tugashini ifodalovchi qarama-qarshi jarayoniy qatorlarga mansub.

Muomala jarayoniga oid frazemalarda boshqa shaxsning ruhiy holatiga ko'rsatilgan ta'sir baholanadi. *Ko'ngil olmoq, ko'nglini ko'tarmoq, ko'nglini topmoq* frazemalari kishini xursand qilish, unga dalda berish va munosabatni yaxshilashni bildiradi. *Ko'nglini og'ritmoq, ko'nglini*

sindirmoq, ko'ngliga tegmoq, ko'nglini qoldirmoq frazemalarida ranjitish, ruhiy ozor yetkazish va munosabatga salbiy ta'sir ko'rsatish anglashiladi. Bu guruhlar o'rtasidagi qarama-qarshilik frazemalarning yaxlit ma'nosi va nutqiy vazifasi orqali yuzaga keladi.

Frazeologik antonimiya ko'p ma'noli frazemaning muayyan sememasiga tegishli bo'ladi. *Ko'ngli bo'sh* frazemasida rahmdillik va ta'sirchanlik ma'nosida *ko'ngli qattiq* yoki *tosh ko'ngil* frazemalariga qarshi qo'yiladi. Qat'iyatsizlik, tez ishonish va iroda zaifligi ma'nolari faollashgan kontekstlarda bu munosabat yuzaga kelmaydi.

Ko'ngli yumshoq frazemasining baholash xususiyati ham uning muayyan qo'llanishiga bog'liq. Rahmdillik ma'nosida frazema ijobiy bahoga ega. Ortiqcha ko'ngilchanlik yoki qarorida turolmaslik ma'nosi faollashganda salbiy baho yuzaga keladi. Shunday ekan, frazeologik antonimiyani belgilashda frazemaning umumiy lug'aviy shakli bilan birga kontekstda voqelangan sememasi ham hisobga olinishi zarur.

“Ko'ngil” komponentli frazemalarning antonimik munosabatlari kenglik va torlik, yumshoqlik va qattqlik, butunlik va kemptiklik, poklik va kirlik, yorug'lik va xiralik, ko'tarilish va cho'kish kabi obrazli modellarga tayanadi. Ushbu modellar makon, jismoniy xususiyat, rang, yaxlitlik va harakatga oid tasavvurlarni insonning ruhiy holati hamda axloqiy xususiyatlarini baholash vositasiga aylantiradi. N.Arutyunova baholashni inson ehtiyoji, maqsadi va me'yoriy tasavvurlari bilan bog'liq semantik hodisa sifatida izohlaydi [1]. V.Mokiyenko va T.Nikitina frazeologik obrazning tanlanishi baholash yo'nalishi bilan uzviy aloqadorligini ko'rsatadi [5, 101–114].

Tahlil natijalari “ko'ngil” komponentli frazemalarda antonimik munosabatning turli darajalarda yuzaga kelishini ko'rsatdi. Struktur jihatdan muvofiq juftliklarda umumiy semantik asos, zid ma'no va o'xshash nutqiy vazifa birlashadi. Ma'nodosh qatorlar o'rtasidagi munosabatda muayyan ruhiy yoki axloqiy belgining qarama-qarshi yo'nalishlari ifodalanadi. Semantik guruhlar o'rtasidagi qarama-qarshilik esa yaxlit vaziyat, jarayon yoki baholashning qutblanishiga tayanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, “ko'ngil” komponentli frazemalarda antonimiya frazeologik ma'noning ichki tuzilishi va obrazli asos bilan uzviy bog'langan. Qarama-qarshilik tarkibdagi zid komponentlar orqali ham, frazemalarning yaxlit ma'nolari orqali ham ifodalanadi. Komponentlar zidligi antonimik munosabatni shaklan aniq ko'rsatsa, semantik qutblanish frazemalarning umumiy ma'no asosi, baholash yo'nalishi va nutqiy vazifasi orqali belgilanadi.

Frazeologik antonimiyaning ikki a'zoli juftliklar doirasidan kengroq hodisadir. Ma'nodosh frazemalar qatorlari va muayyan holat yoki jarayonning qarama-qarshi yo'nalishlarini ifodalovchi semantik guruhlar ham antonimik munosabatga asoslanadi. Ko'p ma'noli frazemalarda antonimik aloqa muayyan semema doirasida yuzaga keladi. Frazemaning baholash xususiyati va qarama-qarshi qatori kontekstda faollashgan ma'noga muvofiq belgilanadi. Shu jihatdan frazeologik antonimlarni tavsiflash umumiy semantik asos, ma'no qutblanishi, obrazli model, grammatik-funksional muvofiqlik va nutqiy qo'llanishni birgalikda hisobga olishni talab etadi. Mazkur mezonlar frazeologik antonimiya bilan mazmunan yaqin, biroq antonimik munosabat hosil qilmaydigan frazemalar o'rtasidagi chegarani belgilashda nazariy asos vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988.

– 339 с.

2. Аюпова Р.А. Фразеологическая парадигматика в словарной статье // Ученые записки Казанского государственного университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2008. – Т. 150, кн. 6. – С. 156–160.
3. Мардиева Э.Р. К вопросу о парадигматических отношениях языковых единиц: на примере фразеологических антонимов // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2014. – № 9 (39), ч. 1. – С. 104–105.
4. Миллер Е.Н. Природа лексической и фразеологической антонимии. – Саратов: Издательство Саратовского университета, 1990. – 222 с.
5. Mokienko V., Nikitina T. The Axiological Portrait of Quality and its Standard: Based on Comparative Phraseography // Studia Slavica. – 2021. – Vol. 66. – № 1. – P. 101–114.
6. Одилов Ё.Р. Ўзбек тилида энантиосемия: филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2016.
7. Поддячая И.А. Семантическая организация фразеологизмов-антонимов качественно-обстоятельственого класса русского и английского языков // Вестник ЧГПУ. – Челябинск, 2009. – № 4. – С. 246–257.
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 406 б.
9. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.